



TERMINOLOGIYA SOHASI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Mamataxunov Bexzod Azizovich

Oriental universiteti

Annotatsiya: *Ma'lumki, ko'plab zamonaviy ilmiy sohalarning jadal rivojlanishi ularga aloqador termin tizimlarining takomillashuvi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari hozirda ayniqsa dolzarb bo'lgan termin tizimi rivojlangan tillarning lug'aviy qatlami maxsus lug'atlarning yaratilishi tufayli yildan yilga boyib bormoqda.*

Kalit so'zlar: *termin, terminologiya, tilshunoslik, termin, ilmiy mezonlar, ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi.*

Rus olimi M.Kodukov fikricha, "Termin – bu kasbiy ya'ni professional ahamiyatga ega bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, kasbiy tushunchani anglatadi, shakllantiradi va ma'lum bir ob'yektlar, ular orasidagi munosabatlarni, ma'lum bir soha nuqtai nazaridan bilish jarayonida ishlatiladi"¹³.

Sh.Shoaabdurahmonov, M.Asqarovalar esa, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berganlar: "Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarga oid tushunchalarning aniq ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasiga termin, deb ataladi"¹⁴.

Termin tushunchasining o'ziga O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "Termin so'zi lotincha terminus – "chegara, had" bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir" – deb ta'rif berilgan. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklar hisoblanadi. Sistemali xarakterga egalik, o'z terminologik maydonida bir ma'nolilikka moyillik, his-tuyg'uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardandir. Ensiklopediyada mazkur yuqoridagi fikrlar davom ettirilib, hozirgi kunda "termin" so'zi bilan bir qatorda "atama", "istiloh" so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanmoqda. Lekin ular "termin" so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. "Atama" so'zi keng ma'noda bo'lib, geografik ob'yektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo'llaniladi. "Istiloh" so'zini esa termin ma'nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (masalan, adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bimalol qo'llash mumkin, degan fikr ham kiritilgan¹⁵.


Albatta, fanning rivojlanishi uning terminologik apparati takomillashib borishi bilan uzluksiz davom etadi. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda "terminologiya" tushunchasini "fan, texnologiya, siyosatga oid ijtimoiy faoliyat sohasi" sifatida ta'rif beriladi¹⁶. Oxirgi

¹³ Кодуков М. Общее языкознание. –М., 1974. – С.105.

¹⁴ Shoaabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1980. – B.12

¹⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B.323-324.

¹⁶ Реформатский А.А.. Классический учебник – Москва: Аспект Пресс, 1997. – С. 536



yillargacha u har qanday muayyan sohaga doir terminlarning jamlanmasi bilan bog'liq edi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida terminologiya so'zi ikki ko'rinishda "termin" va "logiya" bilan izohlanadi. Terminologiya leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmuisi sifatida e'tirof etilsa, "logiya" esa, terminologiya tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi kabi ko'riladi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksikalardir. Terminologiya albatta, umumxalq tilining leksikasida negizida vujudga kelib, yillar davomida boyiydi. Har qanday tilning terminologik leksikasi umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanib, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshidan o'tkazadi. Buning natijasida bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina, o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi¹⁷.

Terminologiya tushunchasi bo'yicha har bir tilshunoslikning o'z qarashi mavjud. Taniqli o'zbek tilshunosi Azim Xojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da terminologiyaga quyidagicha: "Terminologiya (termin+logos-so'z, ta'limot) o'z navbatida ikki ko'rinishga ega bo'lib, u - 1) Biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid terminlar majmui. Masalan, grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va boshqalar; 2) Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi bo'limi" – deb, ta'rif beradi¹⁸.

Rus olimasi V.N.Yarsevaning "Лингвистический Энциклопедический Словарь" (Lingvistik ensiklopedik lug'at) nomli kitobida "Terminologiya yunon tilidan – so'z, ta'lim - degan ma'nolarni anglatib, tilshunoslikda qo'llaniladigan so'z va iboralar majmuini ifodalash, muayyan bir ilmiy sohaning o'ziga xos obektlarini nomlash uchun qo'llanadigan maxsus tushunchalardir" – degan ta'rifni bergan¹⁹.

Rossiya tilshunosligiga oid asarlarda terminologiya, uning etimologik va morfologik jihatlari alohida ta'kidlanib, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, V.P.Vorobyova, S.V.Grincev, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki, M.Kodukov, L.L.Kutina, V.M.Leychik, D.S.Lotte, S.I.Ojegov, A.A.Reformatskiy, A.I.Smirnitskiy, A.V.Superanskiylarning asarlarida tilshunoslik tajribasi, ayniqsa, innovasion ilmiy va texnik terminlar bilan o'zaro aloqada maxsus tushunchalarni, shuningdek, ilmiy bilimlarning muayyan sohalariga mos keladigan yagona konseptual apparatni shakllantirish uchun terminlarni o'rganish, tizimlashtirish vazifasi ta'kidlab o'tilgan.

Rossiyada terminshunoslik maktabining asoschilaridan biri D.S.Lotte "Компьютерные технические терминологии" ("Kompyuterning texnik terminologiyalari") asarida texnik terminlarni tartibga solish usul va vazifalariga, ilmiy va texnik terminlarni tanlash va jamlashning ayrim fundamental masalalariga e'tibor qaratib, terminologiyaning aniq qo'llanilishi, terminlarning qisqa shakllarini tuzish

¹⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B. 323.

¹⁸ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.2012.

¹⁹ Лингвистический Энциклопедический Словарь / Ин-т языкознания АН СССР; Гл. ред. В.Н. Якоба. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.682.

borasida yozgan. Uning fikricha, terminologiya o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan, mustaqil ilmiy sohaga aylandi. U terminologik sohaning nazariy va amaliy metodologiyasiga alohida e'tibor qaratgan²⁰.

T.V.Jerebilo o'zining "Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социоллингвистика" (Tilshunoslik tushunchalari va terminlari: Tilning umumiy bilimlari. Ijtimoiy tilshunoslik) kitobida "terminologiya – muayyan tilda taqdim etilgan bilim va faoliyatning barcha sohaları terminlarining to'plami bo'lib, ularning miqdori tilning funksional kuchiga bog'liq" – deb ta'rif bergan²¹.

Taniqli filolog-terminshunos olim A.A.Reformatskiy ilmiy izlanish natijalarini e'lon qilgan maqolalarida tilning o'ziga xos ilmiy taraqqiyot yo'li mavjudligini ta'kidlab o'tgan²².

Terminologiyaning munozarali masalalarini samarali hal etish yangi ilmiy soha – terminologiya chegaralarini belgilashga imkon berdi. Ikkinchisi, o'z navbatida, tushunchalarning paydo bo'lishi va terminologik tizimlarni tartibga soluvchi qonuniyatlarni aniqlashga qaratildi.

Terminologiyaning o'rganish va uni rivojlanishi bilan bog'liq masalalar G.O.Vinokurning tadqiqotlarida muhim o'ringa ega. Uning "О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии." ("Rossiyada texnika sohasida so'z hosil bo'lishining ba'zi hodisalari to'g'risida") asarida terminologiya, terminning lingvistik xususiyatini, termin tizimlarining etimologiyasi va funksional tuzilishini aniqlash masalalari yoritilgan. Uning fikriga ko'ra, nomlash funksiyasi terminning belgilovchi funksiyasi sifatida yuzaga chiqadi.²³ Ushbu qoida oldin juda munozarali masala bo'lib kelgan va hozirgi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda.

Ya.A.Nesterova va T.V. Chernuxa o'zining "Термин и терминология. Политическая лексика" (Termin va terminologiya. Siyosiy leksika) kitobida "Har bir maxsus so'z termin emas va har bir alohida so'zning to'plami terminologiya bo'lavermaydi, deb ta'kidlaydilar.²⁴ Bu boradagi tadqiqotlar turlicha va albatta, fikrlar ham turlicha.

V.A.Tatarinov "terminologiya" tushunchasining o'zini ham noaniq ekanligiga va uni quyidagi jihatiga e'tibor qaratadi:

- 1) til maxsus birliklarining umumiyliigi;
- 2) inson faoliyatining har qanday sohasi, alohida olimning ontologik sohasi yoki frazeologiyasining maxsus bo'limlari to'plami;

²⁰ Лотте Д.С. Компьютерные технические терминологии. – Москва : АН СССР, 1961. – С.158.

²¹ Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социоллингвистика. Назран: Пилигрим–2011

²² Реформатский А.А. Современные проблемы русской терминологии. – Москва: АН СССР, Ин-т рус. яз., 1986. – С. 163.

²³ Винокур, Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. – Москва, 1939. – С. 55.

²⁴ Нестерова Я.А., Чернуха Т.В. Термин и терминология политическая лексика. Тула:ТГПУ им.Л.Н.Толстого). – С. 123.

3) maxsus lug‘at yoki umumiy so‘zlarning boshqa guruhlariga qarshi bo‘lgan maxsus terminlar guruhi sifatida faqat terminlarning umumiyligi²⁵.

Shuningdek, u ilmiy izlanuvchilar va olimlarning terminshunoslik sohasidagi tilshunoslik ishlanmalarini tizimlashtirish borasidagi eng fundamental tadqiqotlar, terminologik tizimlarni o‘rganishda quyidagi jihatlariga:

- 1) terminlarning ma’nosi va morfologik jihatlarining xususiyatlari;
- 2) ilmiy taraqqiyot kontekstida atamalar semantikasi evolyutsiyasini hisobga olgan holda ma’noviy tarkibiy qismi (semasi)ni o‘rganish;
- 3) terminologik tizimlarni tegishli guruhlarga moslashtirish va tashkillashtirish;
- 5) turli tillar guruhlaridagi terminologik tizimlarni taqqoslash;
- 6) leksikografik amaliyotga yordam beradigan amaliy jihatini aniqlashga o‘rganishga alohida e’tibor berildi.²⁶

Zamonaviy terminologiyani shuningdek, murakkab fanlararo ilmiy soha deyish ham mumkin. Bu atamalar boshqa ilmiy sohalardan ma’lumotlarni uzatishga imkon berib, ilmiy bilimlarning hozirgi rivojlanish darajasida bo‘ladi. Uning asosiy ob’ekti – har qanday termin tizimining leksik tarkibiy qismi bo‘lgan ilmiy bilimlarni uzatish birligi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кодуков М. Общее языкознание. –М., 1974. – С.105.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Т.: O‘qituvchi, 1980. – В.12
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – В.323-324.
4. Реформатский А.А.. Классический учебник – Москва: Аспект Пресс, 1997. – С. 536
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –В. 323.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.2012.
7. Лингвистический Энциклопедический Словарь / Ин-т языкознания АН СССР; Гл. ред. В.Н.Ярцева. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.682.
8. Лотте Д.С. Компьютерные технические терминологии. – Москва : АН СССР, 1961. – С.158.
9. Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социоллингвистика. Назран: Пилигрим–2011

²⁵ Татаринев В. А. Общее терминоведение: энциклопедический словарь / Российское терминологическое общество «РосСтерм». М.: Московский лицей, 2006. –С. 528.

²⁶ Уша жойда. –С. 209.

10. Реформатский А.А. Современные проблемы русской терминологии. – Москва: АН СССР, Ин-т рус. яз., 1986. – С. 163.

11. Винокур, Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. – Москва, 1939. – С. 55.

12. Нестерова Я.А., Чернуха Т.В. Термин и терминология политическая лексика. Тула: ТГПУ им.Л.Н.Толстого). – С. 123.

